



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OILA VA XOTIN-QIZLAR DAVLAT QO'MITASI

"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI



MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2022/2 (3)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirining birinchi o'rinbosari.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*
UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Саидова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*
Шоумаров Гайрат Бакрамович – *доктор психологических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*
Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*
Маъруфова Гулнора Махмудовна – *первый заместитель министра по поддержке Махалли и семьи.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*
Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*
Сандов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*
Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*
Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*
Умирзаков Баходир Хамидович – *доктор экономических наук, профессор.*
Зияев Азамад Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Marufova Gulnora Makhmudovna – *First Deputy Minister of the Minister of Mahalla and family support.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*
Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
Pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
Доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

MENEJMENT

Egamberdiyeva N.M. Xotin-qizlarning ta'lim olishi – mamlakat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri	4
Musurmanova O. Yosh qizlar – Yangi O'zbekiston kelajagining qudrat manbayi.....	8
Iminoxunov A.A. Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini boshqarishning tashkiliy-ma'muriy va moliyaviy mexanizmlari.....	13

SOTSILOGIYA

Xodjayev S.Dj. O'zbekistonda nikoh va oilaviy ajralishlar tendensiyasi.....	21
--	----

OILA VA JAMIYAT

Achilova L.I., Saydivaliyeva X.X. Erta nikoh va erta tug'uruq holatlari bo'yicha xalqaro normalar va milliy qonunchilik tahlili	26
Norqulov H.D. O'smirlar tarbiyasida ota-onaning o'rni	35
Muxamedjonova L.A. Oila madaniy qadriyatlarining shaxs kamolotida tutgan o'rni	41
Ermatov Sh.T. Oilaviy ajralishlarning sabablari	49
Bayjonov F.B. Oila va umumta'lim maktablaridagi yuqori sinf o'quvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish texnologiyalari.....	54
Abdiraimova Sh.A. Tug'ilish sonining ko'payishi va uning maktabgacha ta'lim tizimiga ta'siri.....	61
Sodiqov F. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik: uning oqibatlari va oldini olish mexanizmlari	67

PSIXOLOGIYA

Melibayeva R.N. Tibbiyot xodimlari faoliyatida psixologiya fanining o'zaro integratsiyasiga bo'lgan zarurat	75
--	----

PEDAGOGIKA

Yakubov O.T. Kattalar ta'limining pedagogik-psixologik asoslari	79
--	----



Melibayeva Ruzaxon Nasirovna,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti

TIBBIYOT XODIMLARI FAOLIYATIDA PSIXOLOGIYA FANINING O'ZARO INTEGRATSIYASIGA BO'LGAN ZARURAT

Annotatsiya. Maqola tibbiyot sohasida psixologiya fanining, xususan, psixodiagnostikaning ahamiyati, uning o'ziga xosligi, tibbiyotda psixodiagnostika nazariyasi va usullari asosida kasallik etiologiyasi, patogenezi, kasalliklarni davolash va oldini olishda psixologik omillarning rolini o'rganish bilan bog'liq muammolarni, tibbiyot va psixologiya fanlari integratsiyasi, amaliyotdagi ehtiyojlar tahlili hamda bu sohadagi muammolarni bartaraf etish yo'llarini aniqlashga bag'ishlangan.

Tayanch so'zlar: psixodiagnostika, tibbiyot psixologiyasi, klinik psixologiya, psixoterapiya, neyropsixologiya, kasallik etiologiyasi, patogenez.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности значения психологии в медицине, в частности психодиагностики, изучения этиологии, патогенеза, роли психологических факторов в лечении и профилактике заболеваний на основе теории и методов психодиагностики в медицине, интеграции медицинских и психологических наук.

Ключевые слова: психодиагностика, медицинская психология, клиническая психология, психотерапия, нейropsихология, этиология заболеваний, патогенез.

Annotation. The article discusses the features of the significance of psychology in medicine, in particular psychodiagnostics, the study of etiology, pathogenesis, the role of psychological factors in the treatment and prevention of diseases based on the theory and methods of psychodiagnostics in medicine, the integration of medical and psychological sciences.

Key words: psychodiagnostics, medical psychology, clinical psychology, psychotherapy, neuropsychology, disease etiology, pathogenesis.

Kirish. Bugungi kunda tibbiyot sohalari singari psixologiyaning qator sohalari, xususan, tibbiyot psixologiyasi, klinik psixologiya, psixoterapiya, neyropsixologiya bemorlarni tashxislash, davolash va ularni parvarishlashda o'ziga xos o'rin tutmoqda. Fan taraqqiyotining yangi bosqichlari salomatlikni ta'minlashga xizmat qilishda bemorni tashxislash, kasallik sabablari va ularning oldini olishga xizmat qiluvchi davo choralari

belgilashda tibbiy psixodiagnostikaning o'rni yuqori ekani tajribalarda o'z tasdig'ini topmoqda¹. Shu sababli ham tibbiyotda psixodiagnostikaning mazmun va mohiyati haqidagi mulohazalar bunga aniq izoh berish imkonini yaratadi.

Asosiy qism. Tibbiy psixodiagnostika psixologik diagnostikaning ixtisoslashgan bo'limi

¹ Мелибаева Р., Абдиназарова И. Тиббий психодиагностика: муаммо, мулохаза ва ечимлар.

bo‘lib, psixologiya fani va amaliyotining ajralmas qismidir. Jahonning yetakchi mamlakatlari (AQSH, Rossiya, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqalar) da tibbiyot psixologiyasi va uning amaliy masalalari yuzasidan qo‘llanadigan tibbiy psixodiagnostika usullarining tatbiqi O‘zbekistonda mazkur sohada izlanishlar olib borilishiga yo‘naltirilgan².

O‘zbekistonda tibbiy psixodiagnostikaning holati va uni joriy etish istiqbollari o‘rganish yuzasidan empirik tadqiqot tashkil etildi. Tadqiqotda foydalanilgan anketadagi o‘n bosqichli baholash mezonlari orqali tibbiyot sohasidagi xodimlarning munosabatlari o‘rganildi. Dastlab tibbiyot bilan psixologiya fanining integratsiyasi va ularning o‘zaro aloqadorligi to‘g‘risidagi munosabatlar aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Tibbiyot xodimlari faoliyatida psixologiya fanining o‘zaro integratsiyasiga bo‘lgan zarurat

Mezon	Tibbiyot xodimlarining miqdori va % ulushi (N=64)							
	Bog‘liq		Qisman bog‘liq		Mut-laqo bog‘liq emas		Javob bermagan	
Tibbiyot va psixologiya fanlarining o‘zaro bog‘liqligi	53	82,81	7	10,93	2	3,12	1	1,56
Tibbiyot sohaslariga doir muammolarni yechishda psixologiya faniga zarurat mavjudligi	Zaru-rat bor		Qisman		Zaru-rat yo‘q		Javob bermagan	
	51	79,68	11	17,18	1	1,56	1	1,56

Empirik ko‘rsatkichlar tadqiqotga jalb etilgan tibbiyot xodimlari (respondentlar)ning soni va foizli ulushi bo‘yicha taqdim etildi. Respondentlarning fikricha, tibbiyot bilan psixologiya fanlarining

² Nasirovna M.R. Features of the Implementation of Psychodiagnostic Surveys in Clinics. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4. 2022. pp. 519-527.

o‘zaro bog‘liqligi o‘rganilganda quyidagi natijalar olindi³. Respondentlarning mulohazasiga ko‘ra, ularning 56 nafari (82,81%) tibbiyot va psixologiya fanlari o‘zaro bog‘liq, 7 nafari (10,93%) qisman bog‘liq, 2 nafari (3,12%) “mutlaqo bog‘liq emas”, degan javobni bergan, 1 nafari esa (1,56%) javob bermagan. Empirik ko‘rsatkichlar respondentlarning asosiy qismi tibbiyot bilan psixologiyaning o‘zaro aloqadorlikka ega ekani hamda tibbiyot sohasida ishlayotgan mutaxassislar psixologiyaga tegishli bilimlar orqali o‘z faoliyati samaradorligiga erishish mumkinligini ta’kidlagan⁴. O‘z navbatida, ular tibbiyot sohalari muammolarini yechishda psixologiya faniga bo‘lgan zaruratni quyidagicha ifodaladi: 51 nafar respondent (79,68%) zarurat bor, 11 nafari (17,18 %) zarurat qisman bor, 1 nafari (1,56%) zarurat yo‘q, deb javob bergan va 1 nafari esa javob bermagan. Respondentlarning javobiga ko‘ra, tibbiyot sohasi mutaxassislari uchun psixologiya fani tarmoqlaridan o‘z kasbiy faoliyatlarida foydalanishga zarurat bor, degan xulosaga kelish mumkin⁵.

Tibbiyot sohasida munosabatlarning psixologiya fani, xususan, tibbiy psixodiagnostikadan foydalanish zarurati mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Navbatdagi baholash bandi respondentlarning o‘z mehnat tajribalarida tibbiy psixodiagnostikaga zarurat sezganligi, xorijiy hamkasblari faoliyatidagi tibbiy psixodiagnostikadan foydalanishidan xabardorligi, mahalliy mutaxassislar faoliyatida tibbiy psixodiagnostikadan foydalanish holati va tibbiyot ta’lim yo‘nalishida tibbiy psixodiagnostika o‘quv fanini o‘qitishni yo‘lga qo‘yish masalasiga bag‘ishlangan⁶.

³ Мелибаева Р. Тиббий психодиагностиканинг методологик муаммолари. 2021.

⁴ Бекмиров Т.Р. Психологические особенности адаптации и интеграции детей с отклонениями в развитии. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. 2020. – С. 125-129.

⁵ Мелибаева Р.Н. Проблема умственного развития в трудах психологов советского периода. In International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. 2018. pp. 127-129.

⁶ Мелибаева Р.Н. Формирование самостоятельного и творческого мышления студентов в процессе поиска решения проблемной ситуации //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – №. 12, 2012.

2-jadval

Tibbiy psixodiagnostikaning tibbiyot xodimlari faoliyatida foydalanilish darajasi

Baholash mezonlari	Tibbiy xodimlarning miqdori va % ulushi (N=64)			
	Duch kelgan		Duch kelmagan	
Shaxsiy tajribasida tibbiy psixodiagnostikaga zarurat tug'ilganligi	48	75	16	25
Xorijiy tibbiyot amaliyotida tibbiy psixodiagnostikadan foydalanilishini bilishi	Foydalanayotganligini bilaman		Foydalanayotganligini bilmayman	
	58	90,62	6	9,37
O'zbekistonlik tibbiyot xodimlari tibbiy psixodiagnostikadan o'z faoliyatlarida qay darajada foydalanyaptilar?	Foydalanmoqda		Foydalanmayapti	
	23	35,93	41	64,07
Tibbiyot ta'lim yo'nalishida tibbiy psixodiagnostika o'quv fanini o'qitishni yo'lga qo'yish	Joriy etish lozim		Joriy etish lozim emas	
	62	96,87	2	3,23

Respondentlarning ushbu yo'nalishlar bo'yicha belgilagan natijalariga ko'ra, 48 nafar respondent (75%) shaxsiy o'z tajribasida tibbiy psixodiagnostikaga zarurat tug'ilishiga duch kelganliklarini bildirganlar. Bundan ko'rinadiki, tibbiyot sohasidagi mutaxassislar o'z mehnat samaradorligi, xususan, bemorlarni samarali davolashda zarur uslub va texnologiyalardan foydalanishga xayrixohdirlar⁷. Bu holat ularning o'z faoliyatlarida tibbiy psixodiagnostika imkoniyatlaridan qay darajada foydalanayotganliklarini ko'rsatadi.

Respondentlardan olingan so'rovnoma natijalariga ko'ra, xorijdagi hamkasblari o'z faoliyatida psixodiagnostikadan foydalanishlaridan xabardor bo'lganlar soni 58 nafar (90,62%) ni tashkil etdi. Ularning hamkasblari o'z faoliyatida tibbiy psixodiagnostikadan samarali foydalanayotganini e'tirof etdi⁸. O'zbekistondagi

⁷ Melibaeva R.N. Status and prospects of development of medical psychodiagnosics in Uzbekistan. // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. 2021. pp. 555-565.

⁸ Нарметова Ю.К. Особенности психокоррекционной работы с беременными женщинами. Контактная информация организационного комитета конференции 2016. –С. 35.

tibbiy psixodiagnostikadan foydalanishning umumiy holatini ijobiy baholamaganlar soni, ya'ni 23 nafari (35,93%) "foydalanmoqdaman" deb javob bergan⁹. Bundan ko'rinadiki, ushbu empirik ko'rsatkichlar O'zbekistonda tibbiyot xodimlari tomonidan umumiy tarzda 35% dan ortiqroq tibbiyot xodimlari bundan foydalanishga e'tibor qaratayotgan bo'lsa, 65% ga yaqin qismi esa bundan foydalanish uchun chora-tadbirlarga ehtiyoj borligini bildirgan¹⁰. Mazkur masalaning bugungi kundagi yechimini topishning ilk qadamlaridan biri tibbiyot ta'lim yo'nalishlarida tibbiyot psixodiagnostikasi fanini o'qitishni yo'lga qo'yishdan iboratdir. Respondentlarning 62 nafari (96,87%) tibbiyot ta'lim yo'nalishida tibbiy psixodiagnostika o'quv fanini o'qitishni yo'lga qo'yish haqida ijobiy fikr bildirgan hamda tibbiyot xodimlari faoliyatida tibbiy psixodiagnostikani joriy etish ahamiyatli, degan xulosani bermoqda. Ushbu mulohazalar O'zbekistonda tibbiy psixodiagnostikadan foydalanish bo'yicha dastlabki tajribalar mavjud, ammo uning amaliyotda to'liq joriy etilishi uchun aniq chora-tadbirlarga ehtiyoj borligini ifodalamoqda¹¹.

Xulosa. O'zbekistonda tibbiyot fanini rivojlantirish va mutaxassislar kasbiy salohiyatini oshirishda psixologik bilimlar, xususan, tibbiy psixodiagnostikani rivojlantirish bilan bog'liq holatlarni o'rganish muammolarni hal etishda quyidagilarni inobatga olish lozimligini ko'rsatmoqda:

– psixodiagnostika psixologiya fani va amaliyotining ajralmas qismi ekanini inobatga olib, umumlashtirilgan rejada uning mohiyati "yagona" shaxsning holati, xususiyatlari va imkoniyatlarini tashxislash, uni tarbiyalash va o'qitish, kasallikning oldini olish va uni davolash uchun har bir ehtiyojmand shaxsga amaliy yordam ko'rsatishga erishish lozim;

– psixodiagnostika inson psixikasining tizimli mexanizmlarini, biologik va psixosotsial munosabatlarni ochib berish imkoniyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi uchun

⁹ Нарметова Ю. Бронхиал астма билан касалланган болаларнинг ўзига хос психологик хуеусиятлари. 2020.

¹⁰ Ахмедова М., Нарметова Ю. Нейропедagogika va neyropsixologiya rivojlanib kelayotgan yangi fan sohasi sifatida. Общество и инновации, 3(2), 2022. – В. 103-109.

¹¹ Akhmedova M., Narmetova Y., Alisherov B. Categories of person in conflict and methods of conflict resolution in the occurrence of conflicts between medical personnel. (2021).

O‘zbekistonda dastlabki tajribalarni kuchaytirish va tibbiy psixodiagnostikaning tadqiqot uslublarini amaliyotga tatbiq etishga e‘tiborni kuchaytirish kerak¹²;

– tibbiyot uchun psixologiya fani, xususan, psixodiagnostikaning ahamiyati hamda o‘ziga xosligi haqida ishonch bilan gapirish mumkin bo‘lib, u tibbiyotda psixodiagnostika nazariyasi va usullari asosida kasallik etiologiyasi, patogenezi, kasalliklarni davolash va oldini olishda psixologik omillarning rolini o‘rganish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishi sababli mamlakatimizda tibbiyot sohasi mutaxassislarning psixologik tayyorgarligini ta‘minlash bo‘yicha o‘quv kurslarini joriy etish zarur¹³;

– umumiy tibbiy amaliyotda neyropsixik kasalliklar, psixosomatik patologiya va somatopsixik kasalliklarning tarqalishi, miya shikastlanishi, bolalar va o‘smirlarning rivojlanish anomaliyalari, o‘z joniga qasd qilish xatti-harakati va boshqalarning sabablarini aniqlashda psixodiagnostika metodikalarini qo‘llash samarali natija berishi mumkinligi haqida so‘z boradi, ammo uni to‘laqonli tatbiq etish bo‘yicha amaliy tizimni ta‘minlash;

– turli tibbiy muassasalarda tibbiy diagnostika usullari bilan psixologik diagnostika usullarini uyg‘unlikda qo‘llash kasalliklar sabablarini aniqlash va dovalash tadbirlarini oqilona tashkil etishda muhimdir.

¹² Askarova N.A., Ibragimova N.N. Steps of psychological assistance in persons with loss syndrome. Theoretical & applied science. Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 2021. pp. 527-529.

¹³ Nurmatov, A. (2021). Psychological features of the formation of professional identification in medical staff.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мелибаева Р., Абдиназарова И. Тиббий психодиагностика: муаммо, мулоҳаза ва ечимлар.
2. Мелибаева Р. Тиббий психодиагностиканинг методологик муаммолари. 2021.
3. Мелибаева Р.Н. Проблема умственного развития в трудах психологов советского периода. In International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. 2018. pp. 127-129.
4. Мелибаева Р.Н. Формирование самостоятельного и творческого мышления студентов в процессе поиска решения проблемной ситуации //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – №. 12, 2012.
5. Melibayeva R.N. Status and prospects of development of medical psychodiagnostics in Uzbekistan. // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. 2021. pp. 555-565.
6. Melibayeva. R.N. Features of the Implementation of Psycho diagnostic Surveys in Clinics. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 2022. pp. 519-527.
7. Бекмиров Т.Р. Психологические особенности адаптации и интеграции детей с отклонениями в развитии. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. 2020. pp. 125-129.
8. Нарметова Ю.К. Особенности психокоррекционной работы с беременными женщинами. Контактная информация организационного комитета конференции 2016, July. p. 35.
9. Нарметова Ю. Бронхиал астма билан касалланган болаларнинг ўзига хос психологик хусусиятлари. 2020.
10. Ахмедова М., Нарметова Ю. Neyropedagogika va neyropsixologiya rivojlanib kelayotgan yangi fan sohasi sifatida. Общество и инновации, 3(2), 2022. pp. 103-109.
11. Akhmedova M., Narmetova Y., Alisherov B. Categories of person in conflict and methods of conflict resolution in the occurrence of conflicts between medical personnel. 2021.
12. Askarova N.A., Ibragimova N.N. Steps of psychological assistance in persons with loss syndrome. Theoretical & applied science. Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 2021. pp. 527-529.
13. Nurmatov A. Psychological features of the formation of professional identification in medical staff. 2021.